

2026-yil 2-mart

“Parij bitimining 6-moddasi va Qo‘shma kreditlash mexanizmi (JCM)ni O‘zbekistonda amalga oshirish” mavzusida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi



Toshkent shahrida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hamkorligida Parij bitimining 6-moddasini amalga oshirish va Qo‘shma kreditlash mexanizmi (JCM)ni joriy etish masalalariga bag‘ishlangan davra suhbatini tashkil etildi. Tadbirda davlat tashkilotlari, sohaviy idoralar hamda xalqaro ekspertlar ishtirok etdi.



Tadbirda “O‘zkimyosanoat” AJning Ekologiya va yashil iqtisodiyot bo‘limi mutaxassislari ham faol qatnashib, sohada amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolli loyihalar yuzasidan fikr almashdilar.



Muhokamalar davomida uglerod birliklari savdosini amaliyotga joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida dekarbonizatsiya loyihalarini kengaytirish, shuningdek, xalqaro iqlim mexanizmlaridan samarali foydalanish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.



source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/parij-bitimining-6-moddasi-va-qo-shma-kreditlash-mexanizmi-j>